

ISHSIZLIK VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Fayzullayev Umidullo Xayrullo o'g'li
Rasulova Sevinch Shodiyor qizi

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti talabalari*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ishsizlikni mamlakat iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir etishi qisqacha bayon etilgan.*

O'zbekistonda mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari ko'rsatib o'tilgan. Shunga asosan xulosa hamda takliflar ishlab chiqilgan. Mamlakatimiz aholi muammolarini hal etish maqsadida yurtboshimiz tomonidan yangi lavozim "Hokim yordamchisi" lavozimini joriy etildi. Ular mahalla aholisi bilan bevosita ishlab tadbirkorlarning loyihalariga yordam beradi, kasb-hunarga o'qitish, tarmoq, bo'sh yer va binolardan unumli foydalanishni tashkil etadi. Bu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, jon boshiga daromadni oshirish va kambag'allikni qisqartirishga mas'ul bo'ladi. Kishilik rivojlanishining hozirgi bosqichidagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bu ishsizlik muammosidir. Ishsizlik jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi, ishchi kuchining ulkan miqyosda isrof qilinishiga, potentsial yalpi mahsulot va mamlakat milliy daromadining sezilarli darajada qisqarishiga olib keladi. Ishsizlik darajasi iqtisodiyotning umumiy holatini aniqlash, uning samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Shu sababli, dunyodagi barcha mamlakatlarda ishsizlik muammosi juda dolzarbdir.

Kalit so'zlar: *Ishsizlik, ishchi kuchi, mehnat resurslari, doimiy aholi soni, bandlik darajasi, ishsizlik darajasi.*

Аннотация: *В данной статье кратко описано, как безработица в Республике Узбекистан влияет на экономику страны. Показаны основные показатели рынка труда Узбекистана. На основании этого были разработаны выводы и предложения. В целях решения проблем населения нашей страны глава государства ввел новую должность «Помощник мэра». Они работают напрямую с жителями микрорайона и поддерживают проекты предпринимателей, организуют профессиональное обучение, нетворкинг, эффективное использование свободной земли и зданий. Он отвечает за создание новых рабочих мест, увеличение дохода на душу населения и сокращение бедности.*

Одной из основных социально-экономических проблем на современном этапе развития человечества является проблема безработицы. Безработица, главная производительная сила общества, приводит к огромной трате рабочей силы, значительному сокращению потенциального валового продукта и национального дохода страны. Уровень безработицы является одним из основных показателей для определения общего состояния экономики и оценки ее эффективности. Поэтому проблема безработицы очень актуальна во всех странах мира.

Ключевые слова: *Безработица, рабочая сила, трудовые ресурсы, постоянное население, уровень занятости, уровень безработицы..*

Abstract: *This article briefly describes how unemployment in the Republic of Uzbekistan affects the country's economy. The main indicators of the labor market in Uzbekistan are shown. Based on this, conclusions and proposals were developed. To solve the problems of the population of our country, the head of state introduced a new position "Assistant Mayor". They work directly with the residents of the neighborhood and support the projects of entrepreneurs, organizing vocational training, networking, and efficient use of free land and buildings. It is responsible for creating new jobs, increasing per capita income, and reducing poverty. One of the main socio-economic problems at the current stage of human development is the problem of unemployment.*

Unemployment, the main productive force of society, leads to a huge waste of labor power, and a significant reduction in the potential gross product and national income of the country. The level of unemployment is one of the main indicators for determining the general state of the economy and evaluating its efficiency. Therefore, the problem of unemployment is very urgent in all countries of the world.

Key words: *Unemployment, labor force, labor resources, permanent population, employment rate, unemployment rate.*

Kirish: Tadqiqotchilar iqtisodiy o'sish sur'ati, bandlik va mehnat unumdorligi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka asoslangan holda sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholi bandligini rag'batlantirish siyosatida bir qancha modellarini ajratishadi.

Jumladan, tadqiqotchilar bandlik va mehnat bozorini tartibga solishning beshta: amerika modeli (AQSH), skandinaviya modeli (Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya), anglosaksoniya modeli (Buyuk Britaniya, Kanada, Irlandiya), kontinental yoki nemis modeli (Germaniya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Shveysariya, qisman Fransiya) va yapon modellarini ajratishadi.[1] Bandlik-mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyatdir. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo'yicha shaxslararo munosabatlarni ifoda etadi.

Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda yakka tartibdagi tadbirkorlik, o'zini ish bilan mustaqil ta'minlash, shaxsiy tomorqa xo'jaligida ishlash va bolalarni parvarishlash bilan shug'ullanishni ham o'z ichiga oladi. Bandlik - bu ikki tomon o'rtasidagi munosabatlar, odatda ish haqi to'lanadigan shartnoma asosida bir tomon foyda olish uchun, notijorat tashkilot, kooperativ yoki boshqa tashkilot ish beruvchi, ikkinchisi esa xodimdir. Bandlik odatda mehnat sohasidagi me'yoriy-huquqiy xujjatlar asosida tartibga solinadi. Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.[2] Amaldagi iqtisodiy hayotda ishsizlik, ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Aholi bandligini oshirish maqsadida aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va daromadlar bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish" asosiy vazifa sifatida belgilangan. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar jarayonida aholi bandligini ta'minlash muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi birinchi navbatda, mazkur tushunchaning evolyutsion qarashlari va konseptual yondashuvlarini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Mazkur tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mazmuni turli-tuman shakllar vositasida ifodalanadi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika rivojlanish bilan mehnat unumdorligi ortadi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ishchi kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ishchi kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi. Iqtisodiyot rivojlanishi bilan malakali ishchi kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo'lmay qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez o'sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bo'lib, ishsiz qoladi. Kishilik rivojlanishining hozirgi bosqichidagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bu ishsizlik muammosidir. Ishsizlik jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi, ishchi kuchining ulkan miqyosda isrof qilinishiga, potentsial yalpi mahsulot va mamlakat milliy daromadining sezilarli darajada qisqarishiga olib keladi.

Ishsizlik darajasi iqtisodiyotning umumiy holatini aniqlash, uning samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Shu sababli, dunyodagi barcha mamlakatlarda ishsizlik muammosi juda dolzarbdir. Bu muammo chuqur ilmiy izlanishlar olib borish, har tomonlama nazariy tahlil qilish va shu asosda mamlakatimizning mehnatga layoqatli aholisi bandligini ta'minlash, ishsizlikni minimal, ijtimoiy maqbul darajaga tushirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu sababli, ishsizlik muammosi va uni bartaraf etish yo'llarini o'rganish va tahlil qilish, mamlakat mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlash asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Ishsizlik jiddiy makroiqtisodiy muammo bo'lib, makroiqtisodiy beqarorlik ko'rsatkichi bo'lganligi sababli, davlat unga qarshi kurash choralarini doimiy ravishda ko'radi.

Ishsizlikning har xil turlari bo'yicha, ular turli sabablarga ko'ra yuzaga kelganligi sababli, turli xil choralar qo'llaniladi. Ishsizlikning barcha turlari uchun umumiy bo'lgan choralar quyidagilardir: -ishsizlik nafaqalarini to'lash;-bandlik xizmatlari (bandlik idoralari)ni tashkil etish. Friksion ishsizlikka qarshi kurashning o'ziga xos chora-tadbirlari quyidagilardan iborat: 1) bo'sh ish o'rinlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va taqdim etish tizimini takomillashtirish (nafaqat ushbu shaharda, balki boshqa shahar va tumanlarda ham); 2) ushbu maqsadlar uchun maxsus xizmatlarni yaratish.

Tarkibiy ishsizlikka qarshi kurashish uchun quyidagi choralar ko'riladi: 1) davlat xizmatlari va qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini tashkil etish; 2) ushbu turdagi xususiy xizmatlarga yordam. Sikllik ishsizlikka qarshi kurashning asosiy vositalari: 1) ishlab chiqarishning chuqur pasayishi va natijada ommaviy ishsizlikning oldini olishga qaratilgan antisikllik (barqarorlashtirish) siyosatini olib borish; 2) iqtisodiyotning davlat sektorida qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish. Ma'lumki turli davlatlar o'zining iqtisodiy sharoitlari, demografik omillari, joylashish joyiga qarab aholiga ish o'rinlarini yaratishga

harakat qiladi. Joylashgan joyiga qarab mamlakat aholisi u yoki bu faoliyatga ixtisoslashgan bo'ladi. Shu maqsadda davlatlar aholi bandligini oshirishda o'zlarining strategiyalariga ega bo'lishadi va bu yo'ldagi maqsadlarini to'liq aniqlab olishadi. Mamlakatimiz aholi muammolarini hal etish maqsadida yurtboshimiz tomonidan yangi lavozim "Hokim yordamchisi" lavozimi joriy etildi. Ular mahalla aholisi bilan bevosita ishlab tadbirkorlarning loyihalariga yordam beradi, kasb-hunarga o'qitish, tarmoq, bo'sh yer va binolardan unumli foydalanishni tashkil etadi. Bu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, jon boshiga daromadni oshirish va kambag'allikni qisqartirishga mas'ul bo'ladi. "Bunda mahallada ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni qisqartirish asosiy mezon bo'ladi. Bu ishlarni amalga oshirishga hokim yordamchilari mas'ul buladi", deydi Sh.M.Mirziyoev. Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini qarab chiqadigan bo'lsak, aholi soni mamlakatimizda oxirgi 4 yil davomida yil sayin oshib borgan.

Material va metodlar: Mamlakatda mehnatga layoqatli aholining 1,3 mln nafari ishsiz. 2022-yilda qashshoqlik darajasi 17 foizdan 14,1 foizga tushgan, 2023-yilda bu ko'rsatkichni 12 foizgacha kamaytirish kutilmoqda. Hozirda 2 millionga yaqin O'zbekiston fuqarosi dunyoning turli nuqtalarida mehnat qilmoqda.

Kambag'allikni kamaytirish va bandlikni ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish maqsadida mutlaqo yangi tizim - „hokim yordamchilari“ instituti tashkil etildi. Hozirda respublikadagi mavjud mahallalarda 9 ming 370 nafar hokim yordamchilari faoliyat yuritib, ular tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Hokim yordamchilarining subsidiyalar ajratish, ish bilan ta'minlash, kasbiy tayyorgarlikka jalb qilish va biznes yuritish asoslaridagi ishtiroki tufayli qariyb 2,2 million kishining bandligiga erishildi. Ayni paytda respublika bo'ylab 53 ta kasb-hunarga o'qitish va 539 ta kasb-hunar ta'lim markazlari faoliyat yuritmoqda. U yerlarda mehnat bozorida talab katta bo'lgan 70 dan ortiq kasblar bo'yicha ishsiz fuqarolar o'qitilmoqda. Bundan tashqari, qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda 2 millonga yaqin fuqaro xorij mamlakatlarida mehnat qilmoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak 2021-yil 3 choragi va 2022-yil 3 choragi oralig'ida ish bilan band aholi soni 13,6 mln kishidan 13,8 mlnga yetgan. Ijobiy farq 226 mingta, bu esa vazir aytoyotgan raqamlardan 10 barobar kamroqdir. Shuningdek, Statistika agentligi hisobotlarida 2010-yildan keyin deyarli (pandemiya yilidan tashqari) har yili ish bilan band bo'lganlar soni 200-300 ming kishiga muttasil o'sib kelgan ya'ni 10 mingdan ortiq hokim yordamchilari aslida ish bilan band bo'lganlar sonining ortish tendensiyasiga xech qanday ijobiy tasir ko'rsatmagan. Aslida iqtisodiy o'sish qayta tiklanishni boshlashi bilan iqtisodiy faol aholi soni ham yuqori sur'atlarda o'sishi hamda inqiroz davrida yo'qotilgan aholi qatlami iqtisodiy faol aholi tarkibiga qaytishi kutiladi. Natijada inqirozdan keyin iqtisodiy faol aholi sonining o'sishi oldingi davrga nisbatan tezroq bo'lishi kerak.

Albatta so'ngi yillarda talabalar sonining keskin o'sayotganligi kuzatilmoqda, tabiiyki talabalar iqtisodiy faol aholi tarkibiga kirmaydi. Lekin birgina talabalar sonining yuqori suratlarda o'sayotganligi iqtisodiy faol aholi soni o'sishining bunday jiddiy sekinlashishini tushuntirib berolmasa kerak. Qo'shimchasiga aholi soni uzoq yillardan buyon o'sib kelayotganligini hisobga olsak, har yangi avlodning soni oldingisidan ko'ra ko'proq bo'ladi. Bunday holatda esa iqtisodiy faol aholi soni doimiy o'sib borishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ishsizlik bejizga dunyoning makroiqtisodiy muammosi sifatida qaralmaydi. Ishsizlik darajasining tushishi aholi farovonligi, yashash darajasini keskin pasayib ketishiga olib keladi. Turli davlatlar o'zlarining demografik, iqtisodiy hamda siyosiy vaziyatlaridan kelib chiqqan holda ishsizlik bilan kurashadi. Afsuski ishsizlikka qarshi kurash yo'nalishlari o'z natijalarini qisqa muddatda namoyon etolmaydi. Shuning uchun aynan shu masala bilan shug'ullanuvchi shaxslar turli strategiyalar ishlab chiqishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATIGA:

95. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklastarlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.
96. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).
97. Alikulov, A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. *Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB*, 6(3), 75-76.
98. Alikulov, A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. *Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB*, 6(3), 75-76.
99. Ismatovich, A. A. (2023). THEORETICAL BASIS OF ORGANIZING THE ACCOUNT OF COMMODITY MATERIAL ASSETS IN AGROCLUSTERS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS. *MASTERS*, 1(1), 132-137.
100. Baxodirovich, T. J., & Ismatovich, A. A. (2023). IMPROVING THE ACCOUNT OF FINANCIAL RESULTS ACCORDING TO INTERNATIONAL STANDARDS. *MASTERS*, 1(1), 138-143.
101. Alikulov, A., & Abduraxmonov, F. (2023). QISHLOQ XO 'JALIK KORXONALARIDA YAKUNIY MOLIVAVIY NATIJALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 174-181.
102. Alikulov, A. (2023). Organizational and methodological bases of accounting the costs of establishing vineyards.
103. Alikulov, A., & Razzoqo, A. (2023). PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI TAHLIL QILISH. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 74-83.
104. ESHMURADOV, U. T., & ALIKULOV, A. I. (2014). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF SALES AGRICULTURAL PRODUCTS ON FARM ENTERPRISES. *SEA: Practical Application of Science*, 2(3).
105. ESHMURADOV, U. T., & ALIKULOV, A. I. (2014). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF SALES AGRICULTURAL PRODUCTS ON FARM ENTERPRISES. *SEA: Practical Application of Science*, 2(3).

106. Jo'raeva, D. O., & Abdushukurov, X. B. (2023). UZUMCHILIK PLANTATSIYALARINI BARPO ETISH XARAJATLARI HISOBINI TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 690-699.
107. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 712-721.
108. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. *PEDAGOG*, 6(4), 568-574.
109. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 6(5), 306-318.
110. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 240-250.
111. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 232-239.
112. Abdusamatovich, J. J., Makhmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 222-231.
113. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 369-378.
114. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 379-386.
115. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 387-395.
116. O'G'li, H. S. R., Makhmudovich, U. B., & Abdusamatovich, J. J. (2024). OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 158-165.

117. Faxriddin O'g'li, N. D., Maxmudovich, U. B., & Abdusamatovich, J. J. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARINING NAZARIY ASOSLARI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(2), 126-134.
118. O'G'Li, A. J. F., Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., & Baxtiyorovna, N. G. (2024). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHDA "MAHALLABAY" ISHLASH TIZIMI SAMARADORLIGI TAHLILI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(2), 114-125.
119. Xayrullo O'g'li, F. U., Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., & Baxtiyorovna, N. G. (2024). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING MAHALLABAY ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH. *WORLD OF SCIENCE*, 7(2), 136-143.
120. Odiljon o'g'li, A. O., Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., & Baxtiyorovna, N. G. (2024). KAMBAG'ALLIKNI ANIQLASH VA QISQARTIRISH MAMLAKATIMIZ IJTIMOY-IQTISODIY SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(2), 237-246.
121. Xudjayarovich, N. S. (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QIMMATBAHO QOG'OZLAR BOZORI HOZIRGI HOLATI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 216-221.
122. Khojayarovich, N. S. (2023). VALUES DISPARITY IN THE AGRO-INDUSTRY COMPLEX AND WAYS OF ITS ELIMINATION. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, 3(3).
123. Rabbimovna, R. U., & Farxodovna, E. D. (2023). MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI. *Научный Фокус*, 1(7), 709-714.
124. Ibodullayevich, O. R. F., & Turdibayevich, K. R. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *MASTERS*, 1(1), 119-126.
125. Abdigapparovich, I. X. (2024). QISHLOQ XO'JALIGI MAXSULOTLARINI TAYYORLOV VA SOTISH XIZMATLARINI BOSHQARISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 148-157.
126. Abdigapparovich, I. X. (2024). QISHLOQ XO'JALIGIDA MASHINA-TRAKTOR PARKLARI XIZMATLARINING AXAMIYATI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(2), 105-113.
127. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to 'qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili.
128. Kazakova, Z. S., & Aslonov, X. (2023). QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNINI. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 391-398
129. Salaxiddinovna, K. Z. (2023). Methodology of Teaching Economics and Accounting in a Market Economy. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 18, 66-68.

130. .Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to 'qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili.
131. Salaxiddinova, K. Z., & Iskandarova, I. I. (2024). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNING HUDUDIIY JIHLTLARI. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(2), 247-256.
132. Sharipova, N. M., & Rustanjon o'g'li, T. O. (2024). QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(27), 269-275.
133. Tirkashyev, F. (2023). Intellektual mulkni boshqarish jarayonlarni o'rganishning nazariy muammolari.
134. Rasul o'g'li, U. A., & Ibrohim, S. (2023). KLASTERLARDA SABZAVOT YETISHTIRISH, TASHISH, QAYTA ISHLASH, SOTISH JARAYONLARIDA MENEJMENTI. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 6(5), 39-46.
135. Саламов, И., Жонибеков, Ф. Б., Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2022). САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАРМОҚЛАРИДА ИННАВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛДАГИ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 482-485.
136. Azimjonovich, R. N. (2023). General Characteristics of Socio-Economic Systems and Types of Socio-Economic Systems. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(12), 179-182.
137. Ochilova, M. Poverty in Uzbekistan, Ongoing Reforms and Ways to Overcome Them. *JournalNX*, 569-571.
138. Ochilova, M. The Problem of Poverty in Uzbekistan and the Role of Reforms in Overcoming IT. *JournalNX*, 484-485.